

Shavkat Mirziyoyev: Musa Yerniyazov boshlagan ishlarni do'stlari bilan birga davom ettiramiz



Pandemiya keltirgan sinovli kunlarda xalqimiz og'ir judolikka uchradi. Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi raisi - O'zbekiston Respublikasi Senati Raisining o'rinbosari, O'zbekiston Qahramoni Musa Yerniyazov 2020-yil 31-iyul kuni vafot etdi. Marhum Nukus shahridagi «Shorsha baba» qabristoniga dafn etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-avgust kuni bu yerga tashrif buyurib, Musa Yerniyazov qabrini ziyorat qildi. Marhum haqiga Qur'on tilovat qilindi.



- Rahmatli Musa og'a elni yaxshi ko'rgan, halol, pok, or-nomusli inson edi. U kishiga juda ishonardim, Qoraqalpog'istondan ko'nglim to'q edi. Tili, dini, taqdiri, tashvishlari bir bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining og'zibirchiligini qadrlardi. Qoraqalpog'istonni rivojlantirish, odamlarning birini ikki qilish bo'yicha ko'p ishlarni boshlagan edik. Endi bu ishlarni, rejalarimizni do'stlari bilan birga albatta davom ettiramiz, - dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev Musa Yerniyazov dafn etilgan qabriston obod qilinishini ta'kidladi.



- Bu yerni Qoraqalpog'istonga kelganlar ehtirom bilan ziyorat qiladigan maskanga aylantiramiz. Shunday vatanparvar insonlarning hurmatini joyiga qo'ysak, xalqimizga, yoshlarimizga namuna bo'ladi, - dedi Prezident.





Manba